


## QURILISH ISHLARI

2019 yil yanvar – avgust


2019 yilning yanvar-avgust oylarida Toshkent shahrida jami 10 073,5 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 127,8 %ni tashkil etdi.

### Toshkent shahrida qurilish ishlari hajmi




Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2 495,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 55,3 % ga ko'p ishlar bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan 4,3 % punktga ko'paygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlari hajmining 61,3 %i to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,5 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 125,3 %ni tashkil etgan holda 6 172,5 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.





Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,8% punktga kamayib, 13,9 %ni tashkil etdi va 1405,6 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. O'tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda 103,5 %ni tashkil etgani kuzatildi.




Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo`yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **74,0 %**i yoki 7 452,4 mlrd. so`m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarini yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo`yicha yangi qurilish hisobidan **2 271,4 mlrd. so`m** ishlar bajarilib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan **91,0 %** tashkil etdi.




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan **4034,2 mlrd. so`m**, yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan **65,4 %** yangi qurilish ishlari bo`yicha ishlar bajarildi.




Norasmiy sektor bo`yicha yangi qurilish hisobidan **1 146,9 mlrd. so`m** ishlar bajarilib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan **81,6 %** tashkil etdi.



## Qurilish ishlarining faoliyat turlari bo`yicha tarkibi

(jamiga nisbatan % da)




-  *Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari*
-  *Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari*
-  *Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari*

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo`ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.



## Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 16,5 %ni tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 2,1 % punktga ko`paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelgan ulush o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 2,7 % punktga ko`payib, 60,7 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 4,9 % punktga kamayib, 27,6 %ni tashkil etdi.

## Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 65,7 % ni tashkil etdi va o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 10,1 % punktga ko`paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 34,3 % ni (10,1 % punktga kamayish) tashkil etdi.



## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,2 % punktga ko'paydi va 10,9%ni tashkil etdi.

Qolgan 89,1 %i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,2 % punktga kamaydi.

## Mulkchilik shakllari bo`yicha qurilish ishlari tarkibi

(jamiga nisbatan %da)




Davlat mulkchiligi shaklidagi tashkilotlar tomonidan 541,9 mlrd. so`mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 5,4 foizni tashkil qildi, ya`ni 2018 yil yanvar-avgustiga nisbatan 2,1 % punktga ko`paydi.

Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan 9 531,6 mlrd. so`mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 94,6 foizni tashkil qildi.




## Tumanlar kesimida qurilish ishlari



Qurilish ishlarining tumanlar kesimida eng yuqori o`sinh sur`ati Yunusobod tumanida kuzatilgan bo`lib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan o`sinh sur`ati 131,2 %ni tashkil etdi.

## Tumanlar kesimida qurilish ishlari


(jamiga nisbatan %da)



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Bektemir (tumandagi qurilish hajmining 56,9 %ini tashkil etgan) va Mirobod (mos ravishda, 41,7 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

## Tumanlar kesimida qurilish ishlari

(jamiga nisbatan %da)




Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Uchtepa tumanida kuzatildi - 0,8 %. Bu tumandagi qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar hissasiga to'g'ri keladi – tumandagi jami qurilish ishlarining 99,2 %i.



Toshkent shahrining yuqori o`shish sur`atga – 127,8 % ko`rsatkichga:

- “Yunusobod” va “Sergeli” metro liniyalarining qurilishi;
- Toshkent shahar halqa yo`lida elektro poyezdlar uchun temir yo`l qurilishi;
- Ko`ksaroy majmuasining qurilishi;
- Xalqaro Islom markazi binosining qurilishi;
- Toshkent shahridagi “Navruz” istirohat bog`ining qurilishi;

- Toshkent-Sharqiy aerodromi bazasida zamonaviy fuqaro aviatsiya aeroport majmuasi qurilishi kabi bajarilgan qurilish ishlari natijasida yuzaga keldi.



**Toshkent shahar statistika boshqarmasi**  
**Investitsiya va qurilish statistikasi**  
**bo`limi**

***Nashr uchun mas`ul:***

***Sh. Toshboyev***

***Aloqa telefoni:***

***(0371) 230-88-18***